



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-aprel holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 13 588 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 11 401 ta). 2019- yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soning o‘shish sur‘ati 123,2 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 127,0 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

yanvar-mart oylari holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 285 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 290 taga, oilaviy korxonalar 7 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	127	3,7 %	Xovos t.	36	4,4 %
Sardoba t.	116	12,1 %	Boyovut t.	36	3,1 %
Oqoltin t.	99	10,6 %	Guliston t.	35	3,4 %
Sayxunobod t.	71	6,4 %	Yangiyer sh.	28	3,0 %
Sirdaryo t.	71	4,4 %	Shirin sh.	9	2,4 %
Mirzaobod t.	53	4,3 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga 13 588 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,2 foizni tashkil etdi.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,1 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,7 foiz, sanoat – 12,2 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida 25,3 foiz, Sirdaryo – 11,8 foiz, Mirzaobod – 9,1 foiz va Boyovut – 8,5 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	3 435	Sardoba t.	960
Sirdaryo t.	1 608	Oqoltin t.	932
Mirzaobod t.	1 243	Yangiyer sh.	927
Boyovut t.	1 152	Xovos t.	819
Sayxunobod t.	1 104	Shirin sh.	372
Guliston t.	1 036		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 663 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Guliston sh.	121	4,2 %	Boyovut t.	35	3,8 %
Sardoba t.	115	13,9 %	Xovos t.	34	5,3 %
Oqoltin t.	99	12,2 %	Guliston t.	33	3,8 %
Sayxunobod t.	71	7,6 %	Yangiyer sh.	24	2,9 %
Sirdaryo t.	71	5,2 %	Shirin sh.	9	3,0 %
Mirzaobod t.	51	4,7 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- aprel holatiga 11 466 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan (2 448 ta) o'sish sur'ati 127,1 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,8 foiz, sanoat – 14,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,5 foiz, qurilish – 10,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,0 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,2 foiz, boshqa turlari – 8,2 foiz.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 885	Sardoba t.	829
Sirdaryo t.	1 355	Yangiyer sh.	817
Mirzaobod t.	1 088	Oqoltin t.	810
Sayxunobod t.	940	Xovos t.	641
Boyovut t.	922	Shirin sh.	303
Guliston t.	876		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quydagicha bo'ldi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 44,6 foiz, savdo – 29,6 foiz hamda sanoat 8,9 foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	121	4,2 %	Boyovut t.	35	3,8 %
Sardoba t.	115	13,9 %	Xovos t.	34	5,3 %
Oqoltin t.	99	12,2 %	Guliston t.	33	3,8 %
Sayxunobod t.	71	7,6 %	Yangiyer sh.	24	3,0 %
Sirdaryo t.	71	5,3 %	Shirin sh.	9	3,0 %
Mirzaobod t.	51	4,7 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish surati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (25,1 foiz), Sirdaryo (11,8 foiz), Mirzaobod (9,5 foiz) va Sayxunobod (8,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 54,6 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 863	Sardoba t.	828
Sirdaryo t.	1 343	Yangiyer sh.	813
Mirzaobod t.	1 079	Oqoltin t.	809
Sayxunobod t.	936	Xovos t.	638
Boyovut t.	918	Shirin sh.	300
Guliston t.	874		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Sardoba t.	341
Mirzaobod t.	330
Sayxunobod t.	293
Oqoltin t.	280
Sirdaryo t.	196
Guliston t.	190
Boyovut t.	185
Xovos t.	146
Guliston sh.	103
Yangiyer sh.	46
Shirin sh.	23



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Guliston sh.	370
Sirdaryo t.	221
Mirzaobod t.	162
Boyovut t.	154
Sayxunobod t.	138
Yangiyer sh.	136
Guliston t.	115
Xovos t.	112
Sardoba t.	90
Oqoltin t.	88
Shirin sh.	66



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 75,7 foiz), 5,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 82,4 foiz), 1,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 76,5 foiz) va 0,6 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 55,6 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	423
Mirzaobod t.	134
Sirdaryo t.	105
Yangiyer sh.	97
Guliston t.	83
Sayxunobod t.	77
Oqoltin t.	77
Boyovut t.	70
Xovos t.	66
Shirin sh.	40
Sardoba t.	32



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 71,2 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,5 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 23,1 foiz ulushni va 71,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

244


Fuqarolik
obyektlarini qurish

279

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

681


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 251
Sirdaryo t.	539
Guliston t.	351
Boyovut t.	345
Yangiyer sh.	316
Mirzaobod t.	309
Sayxunobod t.	295
Oqoltin t.	251
Sardoba t.	248
Xovos t.	203
Shirin sh.	112



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 4 212 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 80,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 92,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 79,9 foizni tashkil etdi.

366

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 212

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


2 642

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	184
Sirdaryo t.	79
Boyovut t.	66
Guliston t.	63
Yangiyer sh.	59
Sardoba t.	49
Oqoltin t.	48
Sayxunobod t.	47
Mirzaobod t.	46
Xovos t.	27
Shirin sh.	19



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 74,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,0 foiz ulushini tashkil etdi.

41

Yashash bo'yicha xizmatlar



646


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Guliston sh.	79
Sirdaryo t.	23
Yangiyer sh.	16
Boyovut t.	13
Guliston t.	11
Shirin sh.	8
Sardoba t.	7
Sayxunobod t.	4
Mirzaobod t.	4
Oqoltin t.	4
Xovos t.	2



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,1 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 26,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,2 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 52,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 80,3 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	94
Sirdaryo t.	30
Yangiyer sh.	20
Sayxunobod t.	10
Sardoba t.	9
Mirzaobod t.	8
Guliston t.	7
Xovos t.	6
Boyovut t.	5
Oqoltin t.	5
Shirin sh.	3



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 157 ta yoki 91,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

90,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 4,1 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 114,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 110,0 foizni tashkil etdi;

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

8




178

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	70
Yangiyer sh.	54
Sirdaryo t.	47
Mirzaobod t.	45
Xovos t.	37
Sayxunobod t.	27
Boyovut t.	27
Oqoltin t.	13
Guliston t.	9
Sardoba t.	8
Shirin sh.	4




2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,0 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 67,1 foizni tashkil etdi;


ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 50,3 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 75,0 foizni tashkil etdi;



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	114	5,0 %	Guliston t.	30	4,5 %
Sardoba t.	110	14,8 %	Xovos t.	29	5,2 %
Oqoltin t.	97	13,5 %	Boyovut t.	25	3,4 %
Sirdaryo t.	70	5,9 %	Yangiyer sh.	21	2,9 %
Sayxunobod t.	53	6,9 %	Shirin sh.	9	3,6 %
Mirzaobod t.	45	4,9 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 11 466 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 9 529 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 37,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,2 foiz hamda sanoat – 14,0 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 278	Sardoba t.	744
Sirdaryo t.	1 180	Yangiyer sh.	713
Mirzaobod t.	912	Guliston t.	673
Boyovut t.	727	Xovos t.	563
Oqoltin t.	721	Shirin sh.	251
Sayxunobod t.	767		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib. Xususiy korxonalarining eng ko'pi quydagi hududlarda qayt etilgan Guliston shahri - 470 ta, Boyovut - 150 ta, Guliston -140 ta va Sirdaryo tumanida -129 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quydagicha taqsimlangan savdo sohasida – 598 ta, sanoat – 157 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 149 ta va qurilish sohasida – 136 ta.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	470	Yangiyer sh.	77
Boyovut t.	150	Oqoltin t.	53
Guliston t.	140	Xovos t.	47
Sirdaryo t.	129	Sardoba t.	44
Sayxunobod t.	119	Shirin sh.	41
Mirzaobod t.	103		


2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Sanoat



Tashish va saqlash



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 115 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 55 tadan 89 taga (o'sish 34 taga), sanoatda – 55 tadan 89 taga (o'sishi 34 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi – 24 tadan 52 taga (o'sish 28 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Guliston sh.	77	Oqoltin t.	17
Guliston t.	36	Sayxunobod t.	8
Mirzaobod t.	24	Shirin sh.	8
Sirdaryo t.	24	Xovos t.	6
Boyovut t.	19	Sardoba t.	1
Yangiyer sh.	18		

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarni faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Guliston sh.	4	9,8 %
Sirdaryo t.	2	4,1 %
Yangiyer sh.	2	14,3 %
Oqoltin t.	1	16,7 %
Guliston t.	1	9,1 %
Mirzaobod t.	1	4,2 %
Xovos t.	1	14,3 %

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,2 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 40 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,0 foiz), Turkiya (ulushi 15,1 foiz), Qozog'iston (ulushi 11,2 foiz) va Afg'oniston (ulushi 6,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	49	Sayxunobod t.	7
Guliston sh.	41	Xovos t.	7
Mirzaobod t.	24	Sardoba t.	7
Yangiyer sh.	14	Oqoltin t.	6
Guliston t.	11	Shirin sh.	6
Boyovut t.	7		

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 92 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar****17****Sirdaryo t.****32****23****Guliston sh.****18****12****Mirzaobod t.****12****9****Yangiyer sh.****5****8****Guliston t.****3****5****Boyovut t.****2****3****Sayxunobod t.****4****3****Oqoltin t.****3****1****Sardoba t.****6****5****Xovos t.****2****1****Shirin sh.****5**

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: 67 236 70 00